

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUVCHI

MAHMUDOVA GULMIRANING

“NAVOIYNING “MAHBUB UL - QULUB” ASARIDAGI

HIKOYATLARNING G'OYAVIY

MOHIYATI”mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots.T.Xo`jayev

Navoiy-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I BOB:”Mahbub ul-qulub”ning tuzilishi va undagi masalalar ..	7-24
II BOB:Asardagi hikoyalar va ularning mavzulari, obrazlari,	
badiiyati	25-45
XULOSA.....	46-50

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....51-52

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'z RFA Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Bu yil shoir tavalludining 573 yilligi keng nishonlandi. Xalqimiz, davlatimiz ulug' bobomizga katta hurmat ko'rsatib kelmoqda.

Navoiy, nafaqat o'zbek xalqi, balki butun dunyo, Sharq G'arb xalqlarini o'ziga rom etgan shoir. U kishining asarlarini hamma birdek sevib o'qiydi. Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bu haqda shunday yozgan edilar: "O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafigi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa"¹.

Navoiyning "Xazoyin ul-ma'naviy", "Devoni Foni", "Nazm ul-javohir" kabi she'riy asarlari, "Xamsa", "Lison ut-tayr" kabi dostonlari, "Mahbub ul- qulub", "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Nasoyim ul- muhabbat" kabi asarlarida inson odobi, xulq-atvori, yaxshilik va yomonlik, vafo va xiyonat, rostgo'ylik va yolg'onchilik, saxovat va baxillik, adolat va zulm kabi ko'plab tushunchalar tasvirlab berilgan. Bu asarlardagi har bir mavzu yetuk, komil insonlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Navoiy "Xamsa"si, "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam" asarlarida ko'plab hikoyatlar bor. Bu hikoyatlarning mavzulari rang-barang, obrazlari xilma-xil. Shoir asarlaridagi ana shu hikoyatlarni alohida-alohida o'rganish, mavzularini yoritish, ulardagi masalalarni aniqlash, yoshlar tarbiyasidagi o'rnini ko'rsatish muhim ishlardan. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari shoir hayotining so'ngida yozilgan eng so'nggi yirik nasriy asar hisoblanadi. Asar 1500-yilda yozilgan

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: "M'naviyat", 2008. 47-bet.

bo'lib, 3qism, 127 ta tanbeh, 13 ta hikoyatdan iborat. Birinchi qismda insonlar xulq-atvorida uchraydigan yaxshi-yomon xislatlar va illatlar haqida fikr yuritiladi. Ikkinchi qismda tasavvufiy allomalar va ular hayoti bilan bog'liq hikoyatlar uchraydi. Uchinchi qismda pand-nasihat ruhidagi 127 ta tanbeh kiritilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida "Mahbub ul-qulub"dagi hikoyatlar asosiy mavzu qilib olingan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Navoiyning ko'pgina asarlarida hikoyatlar kiritilgan. Ularni alohida-alohida olib o'rganish, bugungi kun talablari asosida fikr yuritish muhim vazifalardan hisoblanadi. "Mahbub ul-qulub"dagi hikoyatlarni ana shu tarzda o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ular katta-katta kitoblardan tortib, kichik maqolalar shaklida. Asardagi hikoyatlar xususida ham qator ishlar bor. Bu jihatdan adabiyotshunoslar Hayitmetov A¹, Vohidov R², Izzat Sulton³, Sultonmurod Olim⁴, Ummat To'ychiyev⁵ kabilarning tadqiqotlarini, "Navoiyga armug'on"⁶ kabi kitoblarni ko'rsatish mumkin. Ushbu ishlarda "Mahbub ul-qulub" bilan bog'liq ayrim fikrlar o'rin olgan.

Bitiruv ishining maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Navoiy "Mahbub ul-qulub" dostonini o'qib, undagi hikoyatlar, ularning mavzularini aniqlash, badiiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv ishining vazifalari. Bitiruv ishida yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni yoritishga e'tibor qaratildi:

"Mahbub ul-qulub"ni to'liq o'qish;

- asardagi hikoyatlarni aniqlab olish;
- hikoyatlarning hajmini aniqlash;
- ularning mavzularini belgilash va tasnif qilish;
- hikoyatlardagi obrazlarni guruhlashtirish;

¹ Hayitmetov A. "Adabiy merosimiz ufqlari". Toshkent, 1997.

² Vohidov R, Eshonqulov H. "O'zbek mumtoz adabiyot tarixi". Toshkent: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

³ Izzat Sulton. "Navoiyning qalb daftari". Toshkent, 2010.

⁴ Sultonmurod Olim. "Mahbub ul-qulub"da shoirlar va oshiqarlar // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2010.6-son.

⁵ To'ychiyev U. "Navoiyning ishqni turlarga ajratib tasvirlashi" // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2010.6-son.

⁶ Masharipova Z. "Mahbub ul-qulub" hikmatlarida xalq maqollari". // Navoiyga armug'on. 5-kitob. Toshkent, 2006.

- hikoyatlarning badiiy xususiyatlari haqida mulohaza yuritish;
- hikoyatlar va obrazlarni tahlil qilish va boshqalar.

Bitiruv ishining ob'yekti. Ushbu bitiruv ishini yozishda Alisher Navoiyning turli yillarda chop etilgan "Mahbub ul-qulub" asari, ayniqsa, mukammal deb hisoblanayotgan 10 jildlikning 9-jildiga (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n jildlik. 9-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011) suyanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va uslubi. Bitiruv ishining metodologik asosini istiqlol mafkurasining nazariy masalalari aks etgan Prezident Islom Karimovning asarlari tashkil etadi. Bitiruv ishini yozishda navoiyshunos olimlar A.Hayitmetov, A.Qayumov, A.Abdug'afurov, R.Vohidov, I.Haqqul, N.Komilov, H.Homidiy, Sultonmurod Olim kabilarning ilmiy-nazariy tatqiqotlaridan foydalanildi.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi hikoyatlar, ularning mavzularini aniqlash, mavzu jihatidan tasnif qilish, yangicha qarashlar asosida tahlil qilish, obrazlarga e'tibor qaratish, ularning o'ziga xos tomonlarini yoritish, hikoyatlarning badiiyati, ularda badiiy san'atlarni qo'llashda Navoiyning badiiy mahoratini ko'rsatish bitiruv ishining ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv ishida Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi o'n uchta hikoyat, ularning hajmi, mavzulari aniqlandi va tahlil qilindi. Bu narsa shoirning boshqa asarlaridagi hikoyatlarni ham ana shunday o'rganishga turtki, yo'llanma beradi. Ushbu bitiruv ishidan kurs ishi, referat, bitiruv malakaviy ishlari yozishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda foydalanish mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. “MAHBUB UL-QULUB”NING TUZILISHI VA UNDAGI MASALALAR

Ulug‘ shoir, davlat arbobi, adabiyotshunos va tilshunos olim Alisher Navoiyning ijodiy merosini o‘rganish va tadqiq etish biz yoshlarning bugungi kundagi muhim vazifalarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Bu ulug‘ zotning milliy adabiyotimizga va ma’naviyatimizga qo‘shgan hissasi katta. Bu haqda Prezidentimiz I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida shunday deydi: “Alisher Navoiy xalqimizning adabiyoti, madaniyati va siyosiy

tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum etgan o‘lmas so‘z san’atkoridir”².

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ulug‘ bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o‘zgardi. Hazratning boy adabiy merosiga to‘laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo‘ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlanishlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Bu yil shoir tavalludining 573 yilligi yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi. Shoirning adabiy asarlari, takrori yo‘q g‘azallari, pand-nasihatga boy dostonlari haqida adabiy kechalar, mushoiralar o‘tkazilmoqda. Alisher Navoiy asarlarining tub mohiyatini anglash, ularda da’vat etilgan ezgulik, mehr-muruvvat, tinchlik va do‘stlik kabi g‘oyalarni chuqurroq o‘rganish biz yoshlarning bugungi muhim masalalarimizdan biridir. Zero, Navoiyning adabiy merosi miqdor va mazmun jihatdan beqiyos. Bobur Mirzo yozadi: ”... turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytqon emas”. Bu haqda shoirning o‘zi “Lison ut-tayr” dostonida:

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos

Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos¹.

deb yozgan edi.

Navoiyning nafaqat ijodi, balki sermazmun hayoti ham biz yoshlar uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi barchamizga o‘rnak bo‘lishi lozim.

Bahrdin qatrag‘a ta’zim ila tahsin ko‘rdim,

Mehrdin zarrag‘a e’zoz ila ehson topdim.

Ya’ni, dengizning tomchiga ta’zim ila tahsin qilganini ko‘rdim, quyoshning zarraga e’zoz va ehson ko‘rsatganiga guvoh bo‘ldim deb yozadi shoir asarlaridan birida.

Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” kitobida alohida ta’kidlaganidek: “Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot

² Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch “. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. 47-bet.

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent. 2005

mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuygʻusi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi².

Alisher Navoiy tarjimai holi oʻz davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarning asarlarida aks etgan.

Oʻzbek olimlari O.Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Ya.Gʻulomov, I.Sulton, V.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, S.Gʻaniyeva va boshqalar Navoiyning hayot yoʻli haqida asarlar yaratishgan.

Navoiy ijodi ixlosmandlari uning sheʼrlarini yigʻib, “Ilk devon” (1464-1465) tuzgan edilar. “Navoiy devonlari professor H.Sulaymon tomonidan yigʻilib, tasnif etilgan. “Ilk devon” Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasida (inv.564) saqlanadi”³.

Alisher Navoiyning oʻzbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan “Hiloliya” qasidasi Sulton Husayn Boyqaroga bagʻishlangan boʻlsa, forsiy tildagi birinchi yirik asari “Tuhfat ul-afkor” qasidasi Jomiyga bagʻishlangan edi. 1470-yillarning oxirida Alisher Navoiy oʻzining oʻzbek tilida yozgan sheʼrlaridan iborat ilk devoni-“Badoeʼ ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”) ni tuzdi. Mazkur devonda 777 gʻazal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qitʼa, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lugʻz, 3 mustahzod, 5 muxammas, 3 tarjeband, 2 musaddas boʻlib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan kam oʻzbek shoiriga nasib boʻlgan. Alisher Navoiy “Badoe ul- bidoya” tuzilgandan keyingi davrda yozilgan oʻzbekcha sheʼrlari asosida 1480-yillarning oxirida “Navodir un-nihoya” devonini tuzdi. “Mazkur devonning Oʻz.R FA ShI (inv.1995)dagi nusxalari nihoyatda nodir boʻlib, ular Navoiy davrida Hirotda Sulton Ali Mashhadiy (1487), Abduljamil kotib (1487-1488) tomonidan koʻchirilgan”¹. 1481-1482-yillarda “Chihl hadis” (“Qirq hadis” yoki “Arbain”) asarini yozdi. Bunda Muhammad paygʻambarning qirq hadisi toʻrtlik bilan sheʼriy ifodalab berilgan.

² Karimov I. A. “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch “. Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2008. 47-bet.

³ Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi

¹ Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she'riy janrlardan g'azal, qasida, ayniqsa, muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiy forsiy devonida 373 muammo kiritgan. 1485-yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus "Mufradot" asarini yaratdi.

Alisher Navoiyda "Xamsa" – besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483-1485-yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.

"Xamsa"dan keyin Navoiy yana bir qancha asarlar yaratdi. 1485- yil o'zining mashhur "Nazm ul-javohir" asarini yozdi, bunda birinchi xalifalardan bo'lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli gapi ruboiy tarona shaklida bayon etilgan. O'sha davr kitobxonlari, shu jumladan, tarixchi Xondamir bu asarni g'oyat yuksak baholagan"¹.

1490-yilda u o'ziga zamondosh shoirlar haqida Jomiyning "Bahoriston", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarlari shaklida "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar") tazkirasini tuzishga kirishib, 1492-yilda tugalladi. Shu vaqtning o'zida Alisher Navoiy o'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aniqrog'i, aruz vazni qoidalari haqida "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi") ilmiy qo'llanmasini yaratdi. 1494-yilda turkiy tildagi maktublarini to'plab "Munshaot" ("Maktublar") majmuasini tuzdi. 1495-yilda Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarini "Nasoyim ul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari") nomi bilan tarjima qilib, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Alisher Navoiy 1491-1492 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi, yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ishni 1498-1499-yillarda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi "Xazoyin ul- maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun "Chor devon" deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she'rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiyning barcha davrlaridagi dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. U forsiy she'rlaridan tashkil topgan "Devoni Foni" ni, forsiy

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-tom.Toshkent."Davlat ilmiy nashriyoti ",2000.219-bet.

tildagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she'riyat taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Navoiy she'riyatining mavzular doirasi keng, janrlar ko'lami xilma-xil. G'azallari "oshiqona, orifona, rindona"(Shayxzoda) sifatlar bilan o'rganiladi. G'azallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uyg'un holda ulug'lanib, majoz-haqiqat ko'prigi aqidasiga amal qilingan. Alisher Navoiy she'riyatidagi zohiriy ma'no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o'rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

"Navoiy she'riyati Fitrat, Oybek, M.Shayxzoda, H.Sulaymon, N.Mallayev, Yo.Ishoqov, B.Akramov, I.Haqqulov va boshqalar tomonidan o'rganilgan"¹.

"Shoirning 2 yil mobaynida ikkita yirik asari – "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostoni va "Muhokamat ul- lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") nomli ilmiy asarlari yaratildi. Uning so'nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo'sinida yozilgan "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa'diyning "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomiy Aruzi Samarqandiyning "Chor maqola" kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy o'zining hayot yo'lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan"².

"Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin:

1. Devonlari.
2. Dostonlari.
3. Forsiy tildagi she'riy merosi.
4. Ilmiy- filologik, nasriy va tarixiy asarlari"³.

Uning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan "Xazoyin ul-maoniy" devoniga jamlangan.

"Xazoyin ul-maoniy"ga qadar "Ilk devon", "Badoe' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlarini yozgan.

¹ Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-tom. Toshkent: "Davlat ilmiy nashriyoti ", 2000. 219-220-betlar.

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-tom. Toshkent: "Davlat ilmiy nashriyoti ", 2000. 220-bet.

“Xazoyin ul-maoniy” dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g‘azal, umuman 4 devonda 210 ta qit‘a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje‘band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo‘lib, Sharq she‘riyatining 16 turi namoyondir.

Navoiyning nasriy asarlari quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganilgan.

Ilmiy-filologik merosi: "Majolisun-nafois" (1490-91; 1497-98) tazkirasi turkiy tilda yozilgan dastlabki tazkira bo'lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma'lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo'lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movarounnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. “Asar Fahriy Hirotiy(1521-22), Muhammad Qazviniy(1522-23), Shoh Ali Abdulali (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini o'z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususiyatlari bilan qiyoslashga bag'ishladi. Jonli xalq tilida qo'llanilgan ko'plab so'zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo'llanilishiga sababchi bo'ldi. O'zigacha ishlatilgan so'zlarning yangi ma'no qatlamlarini ochdi. O'zbek tili grammatikasini Mahmud Koshg'ariydan so'ng ilmiy asosga soldi. O'zbek tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo'ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e'tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi”¹.

Aruz nazariyasiga bag'ishlangan "Mezonul-avzon"(1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turkiy yozma va og'zaki she'riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o'rgandi. Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she'riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To'qqizta yangi vazn va she'riy

¹ Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

shaklni aniqladi. Turkiy til tarixida ilk bor milliy vazn haqidagi qarashlarni ilgari surdi.

Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish XX asrning 20-yillaridan yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda Fitrat, Oybek, A.Sa'diy, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullaev kabi adabiyotshunos va A.K.Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e'tiborli.

Ustozlarga bag'ishlangan asarlari: "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"(1490-1491), "Xamsat ul-mutahayyirin"(1493-1494), "Holoti Pahlavon Muhammad"(1493-1494).

Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlari: "Tarixi muluki ajam"(1488), "Tarixi anbiyo va hukamo"(1485-1498), "Nasoyim ul-muhabbat"(1496), "Vaqfiya"(1481-1482), "Munshaot"(1498-1499).

Ijtimoiy, falsafiy, axloqiy asarlari:

Alisher Navoiyning fors tilida yozgan she'rlari asosida "Devoni Foniyy" tuzilgan bo'lib, uning muqaddimasida "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") va "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") forsiy qasidalar majmualari berilgan. "Sittai zaruriya" to'plamidagi qasidalar "Ruhul-quds" ("Muqaddas ruh"), "Aynul-hayot" ("Hayot chashmasi"), "Tuhfatul-afkor" ("Fikrlar tuhfası"), "Qutul-qulub" ("Qalblar g'izosi"), "Minhojun-najot" ("Qutilish yo'li"), "Nasimul-xuld" ("Jannat nasimi") kabi nomlar bilan ataladi. Ular Xoqoniy, Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy asarlari ruhida, ularga falsafiy-mantiqiy javob tarzida yozilgan.

"Fusuli arbaa"da Sulton Husayn Boyqaro madhidan so'ng "Bahor", "Saraton", "Xazon" ("Kuz") va "Day" ("Qish") vasflari keladi.

Muammo janri qoidalariga bag'ishlangan "Mufradot" (1485) fors tilidagi ilmiy asarida mumtoz she'riyatdagi bu janrni nazariy jihatdan asosladi. Muammolarni yechish usullarini o'rgatish barobarida 121 ta misol keltirdi.

Navoiyning arab tilida "Sab'atul-abhur" ("Yetti dengiz") nomli diniy-tasavvufiy ruhda lug'at xarakteridagi asar yozgani ma'lum. Biroq bu asar nashr etilib, yetarli darajada o'rganilmagan. "Alisher Navoiyning fors tilidagi merosi

Fitrat, H.Sulaymon, N.Mallaev, Sh.Shomuhamedov, R.Vohidov, Boltayeva tomonidan o'rganilgan"¹.

“Uning zarbulmasalga aylanib ketgan ta'birlari, baytlari, misralari, inson, xalq, bashariyat haqidagi g'amxo'rliqi, adolat, insof va to'g'rilik yo'lida olib borgan tolmas kurashi bu hassos yurakda naqadar zo'r muhabbat qaynaganiga, bu yorqin manglay miyada naqadar oliy fikrlar va g'oyalar javlon urganiga shohiddur”².

“Mahbub ul-qulub” hikmatlarida ham xuddi ana shu axloq me'yorlari haqida fikr yuritiladi. Adib butun umri davomida orttirgan hayot tajribalari asosida donishmand murabbiy sifatida insonga xos bo'lgan xatti-harakatlarni kuzatib, unga odamiylik ilmidan saboq beradi³.

“Mahbub ul-qulub” (“Ko'ngillarning sevgani”) pandnomasi Alisher Navoiyning eng so'nggi yirik nasriy asari bo'lib, 1500-yilda yozilgan. Unda ulug' mutafakkirning umri davomida ko'rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, hayotiy tashvishlarining qalb qatlam-u qavatlaridan sizilib chiqqan lo'nda, umumlashma-xulosalari o'z ifodasini topgan. Musajja' san'atining nodir namunasi sanalgan bu noyob asarning bunyod etilishi sabablarini muallif quyidagicha izohlaydi: “Bu muqaddimotdin maqsad bukim, har ko'y va ko'chada yugurubmen va olam ahlidin har nav' elga o'zumni yetkurubmen va yaxshi-yamonning af'olin bilibmen va yamon- u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin (yomonlik, gunohlardan) no'sh va nish ko'ksunga yetibdur va laim (past, xasis, nokas) va karim zaxm va marhamin ko'nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin bayozi as'hob (suhbatdosh) va davron xaylidin ba'zi ahhobki (ayrim do'stlar) bu hollardin xabarsiz va ko'ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur.

Bu nav' ashob va ahhobg'a intiboh qilmoq va alarni nav' bu holatdin ogoh qilmoq vojib ko'rundiki, har toifa xisolidin vuquflari va har tabaqa ahvolidin

¹ Ziyoz.uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

² Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub” hikmatlarida xalq maqollari”. // Navoiyga armug'on. 5-kitob. Toshkent, 2006. 81-bet.

³ Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub” hikmatlarida xalq maqollari”. //Navoiyga armug'on. 5-kitob. Toshkent, 2006. 78-bet.

shuurlari bo'lg'ayki, munosib el xizmatig'a shitob qilg'aylar va nomunosib el suhbatidin ijtinob vojib bilg'aylar va bari el bila maxfiy rozlaridin so'z demag'aylar. Va shayotin makr-u firibidin boziy emagaylar. Har nav' el suhbat va xususiyatiki, alarg'a havas bo'lg'ay, bu faqirning tajribasi alarg'a bas bo'lg'ay"¹.

Asar 3 qismdan iborat.

Avvalg'i qism: Soir un-nosning af 'ol va ahvoli kayfiyati – har xil toifa odamlar fe'l-atvori va ahvoli kayfiyati.

Ikkinchi qism: Hamida af 'ol va zamima xisol xosiyati –yaxshi fe'llar va yomon xislatlar xosiyati.

Uchinchi qism: Mutafarriqa favoid va amsol surati - xilma-xil foydalar va hikmatli so'zlarning ko'rinishi.

Pandnoma an'anaviy "hamd"- Ollohning tanholigi ("vahdad") va ulug'vorligi, na't- Muhammad alayhis-salomning maqtovi bilan boshlanadi. Asarning birinchi qismi 40 fasldan iborat.Unda "egallagan vazifasi, ko'rsatilajak ta'siri jihatidan jamiyat taraqqiyotida belgili mavqega ega qirq to'qqiz toifa ahlining fe'l-atvori, ahvoli xususida fikr yuritiladi. Bu safda shohdan gadogacha bo'lgan aksariyat toifa a'zolarini uchratish mumkin"¹.

Navoiy turfa toifa ahllarini goh tanqidiy, goh ijobiy, goh nafratli qarashlari bilan takrorlanmas o'xshatishlar vositasida juda chiroyli tasvirleydi.Asarda quyidagi toifa ahllari haqida fikr yuritiladi: odil sultonlar, islompanoh beklar zikrida, zolim va fosiq shohlar, vazirlar, nomunosib noiblar, noqobil sadrlar, fosiq qozi, mufti, mudarrislar, kotiblar, nazm gulistonining xushnag'ma qushlari, imomlar, muqriylar, qissasoz va qissaxonlar, nasihat ahli va voizlar, ahli nujum, mutrib-u mug'anniyalar, tabiblar, tijorat ahli, bozor kosiblari, dehqonlar, yatim va laimlar, riyoyi shayxlar, xarobot ahli va darvishlar kabi. Navoiy fikrlarini dalillash maqsadida har bir toifaga berilgan tavsifdan so'ng she'riy izohlar

¹ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 453 –bet.

¹ Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. Toshket: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2006.432-bet.

keltiradi. Chunonchi birinchi qismda 7 ta masnaviy, 16 ta bayt, 3ta nazm, 6 ta ruboiy va 7 ta qit'a berilgan.

“Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismida bayon etilgan fikrlar ulug' adibning hayotiy tajribalari, umumlashmasi bo'lib, unda atrofdagi voqea-hodisalardan doimo ogoh bo'lishga da'vat etiladi. Bu da'vatlar yurt sarvaridan tortib, oddiy fuqarogacha taalluqlidir.

Asarning ikkinchi qismida komillikka erishish yo'li, tasavvuf tamoyillari haqida fikr yuritiladi. “Ushbu qismdan yomonliklardan mosivo bo'lishning eng to'g'ri yo'li nafsni riyoziyat bilan mavh etib sabr-u qanoat bilan pok yashash, ruhni chiniqtira borib, hamida axloqqa erishish xususida fikr yuritiladi. Nafsni mag'lub etib, ilohiy fayzdan bahra olishning dastlabki bekati-tavbadir. Tavbadan murod haq yo'lga kirgan solikning barcha yomon ishlardan ogoh bo'lib, ulardan butkul voz kechishi, har taraflama poklanishdir”¹.

O'n fasldan tarkib topgan asarning ikkinchi qismida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze' va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq singari tasavvufiy istilohlar sharhlanadi. Shuningdek, har bir masala nazariy jihatdan yoritilgandan so'ng fikrlarni dalillash maqsadida bir hikoya keltiriladi. “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi tuzilishiga ko'ra “Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolat va hikoyatlarga o'xshab ketadi. Bu qismda 16 ta masnaviy, 3 ta qit'a, 4 ta ruboiy, 14 ta bayt keltirilgan.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi “Mutafarriqa favoid va amsol surati” (“Turli foydali maslahatlar va maqollar”) deb nomlangan. Bu bo'limda odob va axloq masalalariga doir to'rt yuzga yaqin maqol va hikmatli so'zlar tanbehlar shaklida qo'llanilgan bo'lib, adib ular orqali pand-nasihat berib, go'zal insoniy fazilatlarni egallashga, yomon illatlardan saqlanishga, ilm o'rganishga, yaxshilarga yor, muhtojlarga madadkor bo'lib, xalq va Xoliq oldidagi burch, vazifalarini halol ado etishga da'vat etadi”².

¹Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. Toshket: “O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2006.435-bet.

² Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub” hikmatlarida xalq maqollari”. // Navoiyga armug'on. 5-kitob. Toshkent, 2006. 77-bet.

Asarning bu qismi turli foydali pand va hikmatlar, 127 ta tanbehdan iborat.” Asarning mazkur bobi oldingi boblarda bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarni ulug‘ shoirning maqollarga uyg‘un hikmatli so‘zlari bilan birmuncha kengaytiriladi va umumlashtiriladi. Keltirilgan tanbehlar adibning uzoq yillar davomidagi hayotiy kuzatishlar hosilasi bo‘lib, o‘ziga xos hukmlardan iborat”³. Bobda Navoiy saj’ va boshqa badiiy san’atlardan mohirona foydalangan. Bu qismda 57 ta bayt, 19 ta qit’a, 12 ta masnaviy, 8 ta ruboiy, 2 ta nazm keltirilgan. Pandnomada jami 22 masnaviy, 19 ruboiy, 88 bayt, 31 qit’a, 5 nazm bor.

“Mahbub ul-qulub”dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit’a hayotiy hikmat darajasiga ko‘tarilganki, bu tanbehlar zamiriga xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi davomida to‘plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan.¹

“Mahbub ul-qulub”da Navoiy bevosita o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga baho beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlaridagiga qaraganda kengroq, chuqurroq va aniqroq bayon etadi.”³

Pandnoma “Odil salotin zikrida” sharhi bilan boshlanadi. Navoiy podshohlar va ularning xalq oldidagi burch va mas’uliyatlari haqida fikr yuritadi. Bir umrlik orzusi odil podshohlarni go‘zal tashbehlar bilan juda chiroyli tasvirlaydi. ”Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qora tufroqdin gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorisidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda. Hirosatidin qo‘y-u qo‘zi bo‘ri xavfidin emin va siyosatidin musofir ko‘ngli qaroqchi vahmidin mutmain ”⁴.

³ Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. Toshket: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2006. 435-bet.

¹ Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub hikmatlarida xalq maqollari”. // Navoiyga armug‘on. 5-kitob. Toshkent. 2006. 78-bet.

³ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent: 1983. 4-bet.

⁴ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2011. 454 –bet.

Asarda odil podshoh quyoshga, bahor yomg'iri, qo'riqchi, cho'ponga qiyoslanadi. Xuddi shunday o'xshatishlar "Hayrat ul-abror" dostonida ham keltirilgan. Unda shohlik sifatlari quyidagicha tavsiflanadi: "Quyosh o'zi senga soyabon bo'lishga intiladi. Oy yuzidagi muhr sening uzuging o'rni. Sulaymon davlatida sen ishrat qilasan; humo qushidan boshqa narsa senga soya solmaydi. Sen podshoh Jamshid o'tirgan joyda o'tiribsan, qo'lingni qadahdan boshqa narsa o'pa olmaydi. Adolat uzugingga baland osmon" Rostlik-xaloslik" degan so'zlarni naqshlagan. Baland martabang xutbasini esa u "Adolat bilan amiringni yurgiz!" - deb yozgan"¹.

Alisher Navoiy saroy amaldorlarining yaxshi yoki yomon fe'l sohibi bo'lishini hukmdorga bog'liq deb bilgan, shuning uchun ham dastlab shohlar haqida fikr yuritiladi.

Podshohning eng yaqin maslahatchisi vazirdir. Vazir podshohni to'g'ri yo'ldan adashmasligi, to'g'ri hukmlar chiqarishi uchun mas'ul. U vazir haqida fikr yuritarkan, "Vazir vizrdin mushtarakdur va bu fe'l aning zotig'a ahak va alyakdur. Bu ishni pisandida qilq'on Osaf ermishkim, nigini naqshi "qad rahimallohu man an safa ermish". Dahr elida birovki Osafnihondur, bilgaykim, Sulaymon taxti barboddur"². Adib o'z zamonasida hech bir durust vazir ko'rmaganligini, qachonlardir Osaf ismli bir vazirgina insofli bo'lganini aytadi. "Majiduddin, Nizomulmuluk singari Husayn Boyqaro saltanatining ishonchli ustunlari sanalgan vazirlar o'z manfaatlari yo'lida hamma narsani, hatto, insonni ham qurbon qilishga tayyor turganliklariga bir necha marta guvoh bo'lgan ulug' mutafakkir bunday toifa vakillarini keskin tanqid qiladi: Bu zolimlar yurti barbod berguvchilardir va mulk ahli yig'ishturg'onlarin bitirguvchilardur. Avlo ulkim, bular zikrida kishi xoma surmagay... Zahr berib bemor o'lturguvchi tabib, bularning holig'a mushobehdur va qarib... Bular, jumlasini chayonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar"³.

¹ Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2006. 297-bet.

² Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 457 -bet.

³ Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. Toshkent: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2006. 433-bet.

Bilamizki, Navoiy ham 1472-1476-yillarda vazir lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Uning faoliyati davomida xalqning ahvoli anchayin yaxshilangan.

Mamlakat tinchligini ta'minlovchi, qo'riqllovchi yana bir toifa borki, Navoiy ularga tanqidiy ko'z bilan qaragan. "Yasog'liq degan qaro cherik, Yajuj va Ma'juj xaylig'a sherik. Emgakdin alarg'a orom yo'q, yasoq tortardin bir nafas kom yo'q. Ishlari talay olg'onni talamoq, yot yurtida chugurtkadek sabza va yafrog'ni yalamoq.

Ruboiy:

Ul qavmdin a'juba xaloyiq bo'lmas

Kim, me'dalari harom yerdin to'lmas.

O'lguncha balo chekib erurlar mavjud,

Chin bo'ldi bu da'voki, yasog'liq o'lmas"¹.

Asarda shayx ul-islom, qozi, muftiy va mudarrislar haqida ham fikr yuritilib, ularning qilgan yaxshi va yomon ishlari elga ibrat qilib ko'satiladi. Xususan, shayx ul-islom musulmonlar peshvosi bo'lib, musulmonlar uning yo'lidan borishlari lozim deyiladi. U islom dinining himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Rad etib bo'lmas darajada haq so'zni so'zlovchi, shariat qonunlarida mustahkam va barqaror turuvchi, fayzli va obro'li odam bo'lmog'i shart. Shunday bo'lgandagina uni "shayx ul-islom" desa bo'ladi deydi. Shundaylardan birini misol qilib keltiradi.

Bayt:

Mundin o'ldi muqarrabi Boriy,

Shayx al-islom piri Ansoriy

Qozilar musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchilar deb ta'riflanadi. Bu toifa ahlini Navoiy cholg'u asbobiga o'xshatadi. "Soz toridekkim, e'tidoldin tajovuz qildi, tuzuki buzuldi. Ulki hukmi el moli va jonig'a joriy bo'lg'ay, kerakkim, da'bi muqmir shiori bo'lg'ay. Ayog'ikim, siroti mustaqimdin toyildi Vayl chohi tubin maqom qildi. Bu ishni o'zi qilurmen degan

¹ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 460 –bet.

beboku kozib, kozibi bebokka payg‘ambar shar‘i hokimlig‘ig‘a ne munosib’’¹. Navoiy tabiblarni ham tanqid qiladi. Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. U tig‘ bilan o‘ldirsa, bu zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir: chunki, u gunohkorlarni o‘ldiradi, bu esa begunohlarni halok qiladi deb ta’riflaydi.

Bayt:

Hoziq tabibi xushgo‘y tan ranjig‘a shifodur,
Omiyyu tundu badxo‘y el jonig‘a balodur.

“Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari” bobida shoirlar qushga o‘xshatilgan. Shoirni qushga o‘xshatish adabiyotda oldindan bor edi. Bu yerda shoirlarning she’r ijod qilishi bilan qushlarning sayrash xususiyati asos qilib olingan. Navoiy shoirlarni 5guruhga ajratgan.

”Avvalg‘i jamoat-nuqudi kunuzi ma’rifati ilohiydin g‘aniylar va xalq ta’rifidin musta’niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm bermak. Nazm adosi bag‘oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o‘ldug‘i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi mu’jiz nizomda tilagan topar, chun maal-qasd emas, el hurmati jihatidin ani she’r demas’’².

“Bu guruh ijodi mohiyatini to‘la tushunib olish uchun tasavvufda uch bosqich, ya’ni shariat, tariqat va haqiqat borligini ko‘z oldimizga keltirishimiz kerak. Demak, birinchi guruh shoirlari faqat haqiqatni qalamga olgan. Ya’ni bunday sohibi qalamlar asarlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri Olloh taolo, uning sirlari, so‘zlari ta’riflangan’’¹. Alisher Navoiy bunday shoirlarning peshvosi deb amir ul-mo‘min Hazrat Alini ko‘rsatadi. Yana forsiylardan Shayx Fariduddidin Attor, “Masnaviyi ma’naviy” muallifi Jaloliddin Rumiyni aytadi.

¹ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 462 –bet.

² Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 464 –bet.

¹ Sultonmurod Olim. “Mahbub ul- qulub”da shoirlar va oshiqalar tasnifi”// ”O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2010. 6-son. 38-bet.

Ikkinchi guruh shoirlariga haqiqat sirlariga majoz sirlarini aralashtirib, o'z fikrlarini shu uslubda ifoda etuvchilarni kiritadi. Bular Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin, Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz.

“Demak, borliq olamni va uning sarvari bo'lmish insonni, uning muhabbatini kuylashni birlamchi hisoblagan, shu yo'l bilan ramzan Ollohga ishqni ifodalagan shoirlar ikkinchi guruhga kirar ekan. Ular haqiqat bilan majozni omixta qilib yozadi. Oddiylashtirib tushuntirganda, ular yor deb go'yo Yerdagi ma'shuqani tasvirlaydi-yu, undan o'sha haqiqiy yorni ko'zda tutaveradi, ikkalasi aralash keladi.”

Uchinchi guruh shoirlar asarlarini “ma'joziy ma'nodadir” deb ta'riflaydi shoir. Ulardan quyidagi shoirlarni misol tariqasida ko'rsatadi: Kamol Isfahoniy, Hoqoniy Shervoniy, Hoju Kirmoniy, Mavlono Jaloliddin, Anvari, Zahir, Abdulvosi', Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy.

Mavlono Jomiyni to'rtinchi guruhga kiritib, “birinchi guruh ravishida so'zi sharaflari va so'nggi guruhning ham uslubi go'zalliklarida kamol egasidirki, dunyodagi ilohiy haqiqat shaydolari ham, pok insoniy muhabbat ahllari ham bularning latif va ma'nodor so'zlari bilan xushnuddirlar va tarqatgan ma'rifatlari bilan huzur qiladilar”,² -deya ta'riflaydi.

Bilamizki, “Mahbub ul-qulub” –pandnoma asar. Unda pand-nasihat, o'git birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun shoirlar zikridagi fasl ham ana shunday tanqidu o'gitdan xoli emas. Yuqorida sanalgan to'rt guruh ta'rifu tahlili tugagach, Navoiy endi shoirlarning yana bir “adno”, ya'ni past tabaqasini –beshinchi guruhni qalamga oladi: ”Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila faqat ko'ngullar xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar”-deya ta'riflaydi. Qizig'i shundaki, bu toifa shoirlarning ko'pchiligining she'rida ma'no ozroq va shoirlik da'volari ko'proqdur.

² Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011.

“Ruboiy:

A’lolari ularning eng yaxshisidir,

Tubanlari esa barcha tubanlar tubani.

O’rtoqlari esa hech narsaga yaramaydi,

Bilgilkim, yaxshisi ulardan og‘iz ochmaslik kerak”¹.

Asarning keyingi bobida kotiblar haqida so‘z yuritiladi. Kaykovusning “Qobusnoma ” asarida kotibning ijtimoiy ahvoliga ko‘ra odobi qanday bo‘lishi lozimligi,unda qanday fazilatlar bo‘lishi bayon qilinar ekan,shu fazilatlarni o‘rgatishga dasturilamal vazifasini o‘tovchi hikoyatlar keltirilgan.”Mahbub ul-qulub”ning “Kotiblar zikrida”gi faslida bironta ham hikoyat uchramaydi.Navoiy kotiblar haqida so‘zlarkan, yaxshi yozilgan xat va xatga qo‘yilgan nuqtalar, yuzga go‘zallik baxsh etadigan xoldek oq qog‘oz jamolini bezaydi, deydi. Yana, yomon kotibning joyi qalamdonddek chuqurlik bo‘lsin,boshi esa qalamdek yara va qora bo‘lsin, deb tasnif beradi.”Savodsiz kotib o‘quvchini tashvishga qo‘ygani, ortiqcha mehnat sarflashga majbur qilgani holda, o‘z mehnati, butun sa’yu harakatlarini ham yelga sovuradi. Kishining o‘zi qilgan ishni o‘zi yo‘qqa chiqarishi, o‘z qadr-qimmatini o‘zi oyoq osti qilishi-o‘zi yiqqan xirmonga o‘zi o‘t qo‘yishi bilan barobardir”¹.

“Kadxudolig‘ sifati va xotunlar zikrida”-oilaning tinch va farovon bo‘lishi ayolga bog‘liq deb ko‘rsatiladi.Yaxshi xotun- oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo‘lsa-ko‘ngul yozug‘i, xushmuomala bo‘lsa-jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi-deb ayollikning yaxshi sifatlarini aytib o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, asarning ushbu qismi inson o‘z aksini ko‘zguda ko‘rgandek aniq va ravshan yoritib berilgan. Har bir kasb egasining yaxshi va

¹ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 432 –bet.

¹ Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub” hikmatlarida xalq maqollari”. // Navoiyga armug‘on. 5-kitob. Toshkent. 2006. 126-bet.

yomon fazilatlari boshqalarga ibrat bo'lsin uchun, bir-biriga o'xshamagan tashbehlardan foydalanilgan. Keltirilgan misollar esa qisqa va aniq. Asarning ikkinchi qismi ham xuddi shunday yoritib berilgan.

II BOB. ASARDAGI HIKOYALAR VA ULARNING MAVZULARI, OBRAZLARI, BADIYYATI

Mazkur bitiruv malakaviy ishida asosiy e'tibor "Mahbub ul-qulub" dagi hikoyatlar va ularning g'oyaviy mohiyatiga qaratilgan. Hikoyatlar asosan ikkinchi qismda alohida sharhlar bilan berilgan. Asarda o'n uchta hikoyat keltirilgan bo'lib, ikkinchi qismda o'n bitta, uchinchi qismda ikkita hikoyat bor.

Birinchi hikoyat-Shayx Abdulloh Muborak haqida.

Ikkinchi hikoyat-Mavlono Shamsuddin Muiddi Ucha haqida.

Uchinchi hikoyat-Shayx Ibrohim Sitnabah haqida.

To'rtinchi hikoyat-Shayx Shoh Ziyoratgohiy haqida.

Beshinchi hikoyat-Sabr xususida.

Oltinchi hikoyat-Muqbil va Mudbir haqida.

Yettinchi hikoyat-Xoja Abdulloh Ansoriy haqida.

Sakkizinchi hikoyat-Tavajjuh xususida.

To'qqizinchi hikoyat-Ali ibni Abu Tolib haqida.

O'ninchi hikoyat-Majnun va layli ishq haqida.

O'n birinchi hikoyat-Shayx Abu Said Xarroz haqida.

O'n ikkinchi hikoyat-Sayx Boyazid Bistomiy haqida.

O'n uchinchi hikoyat-Xorun ar-Rashid haqida.

Bu hikoyatlarda ko'pdan ko'p mavzular qalamga olingan. Ma'lumki, asarning ikkinchi qismi biror bir maqomotning ta'rifiga qaratilgan. Ana shu mavzular hikoyatlarda ham yanada rivojlantirilgan. Professor A. Hayitmetov: "Alisher Navoiy ijodining ulug'vorligi avvalo undagi mavzular va g'oyalar olamining kengligi, rang-barangligi bilan bizni hayratga soladi. Unda o'z davrining biror muhim muammosi, o'sha davr hayotining biron tomoni yoritilmasdan qolmaydi"¹-deb to'g'ri ta'kidlagan". Mahbub ul-qulub" asarining ikkinchi qismida ham tasavvufiy istilohlar haqida xuddi shunday fikrni aytish mumkin.

"Tariqatda maqomot va hol tushunchalari muhim o'rin tutadi."Maqomot"-maqom(manzil,bekat)so'zining ko'pligi bo'lib,solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi.Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan:

1.Tavba.

2.Vara'.

3.Zuhd.

4.Faqr.

5.Sabr.

¹ Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodida mavzularga bo'lish va tanlash prinsiplari.//Navoiyga armug'on. 3-kitob. Toshkent, 2003. 8-bet.

6.Xavf.

7.Rajo.

8.Tavakkul.

9.Rizo.”²

Navoiy asarida ana shu maqomlarni asos qilib olgan va ularni to‘laroq bayon etish uchun hikoyatlarni keltirgan. Birinchi hikoyat Tavba bilan bo‘g‘liq.

Tavba-shariatda vojib, tariqatda shart, sulukda lozim bo‘lgan tushuncha. Tavba insonning qilgan gunohlaridan pushaymonligi, gunohlarining kechirilishini Tangridan iltijo qilib so‘rashi va Haq yo‘liga qadam tashlashi. Tasavvufda solikning Parvardigor sari safari bo‘lsa, bu safar manzillari-maqomlari yettitadir. Birinchi maqom tavbadir. Tasavvuf istilohida tavba ruhning bedorligidir, deb ta’rif qilinadi.

Najmiddin Komilov ham o‘zining “Tasavvuf” asarida bu maqomotning asl mohiyatini ochib beradi. “Tavba-qaytish demak, ya’ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bob ul-abvob-eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo‘ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu tavbasida ayonlashadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik xudoga yetishish yo‘lida g‘ov bo‘ladigan jamiki narsalardan yuz o‘girishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Tavba kufrdan qaytish, shariatda man etgan nahy va yomon ishlardan qaytish, zamima axloqdan hamida axloqqa qaytish, Haqning g‘ayri bo‘lgan narsalardan qaytish kabilarni o‘z ichiga oladi”¹.

Navoiy esa asarda tavba baxtsizlik yo‘lining oxiri va to‘g‘rilik yo‘lining boshlanishidir deydi. Haqiqiy tavba-yomon fe‘llar tufayli keladigan azob uqubatlarning oldini olmoqdir va xalq madadi bilan u fe‘llardan chekinmoqdir. Navoiy bu fikrlarning isboti uchun quydagi ruboiyni keltirib o‘tadi:

Ruboiy:

Haqdin angakim, yetti inoyat vaqti,

² Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: “Movarounnahr”, nashriyoti. 2009. 26-bet.

¹ Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: “Movarounnahr” nashriyoti, 2009. 27-bet.

Ko'ngliga yomon fe'li siroyat vaqti.

Isyonig'a fosh o'lur nihoyat vaqti.

Bu bo'ldi hidoyatqa bidoyat vaqti².

Shoir o'z fikrlarini yanada dalillash maqsadida bir hikoyat keltiradi. Birinchi hikoyat Shayx Abdulloh Muborak haqida.

Shayx Abdulloh Muborak - Abu Abdurahmon Abdulloh bin Muborak Marvaziy Iroqning Hit shahari, Shahanshoi ulamo, shariat va tariqatning imomi, qalam va qilich amiri deb ta'riflangan buyuk shayxlardan." Attor «Tazkirat ul-avliyo»da uning manohiblaridan 22 naql keltiradi. Jomiy «Nafahot ul-uns»da, Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Abdullo Muborak haqida alohida maqola beradilar". Navoiy Attor keltirgan Abdulloh Muborak manaqiblaridan biri - tavbasining boshlanishi haqidagi naqlni keltiradi. U bir kanizak ishqiga giriftor bo'ladi. Bir qish kechasi tongga qadar ma'shuqa devori ostida turadi. Qor va sovuqda qoladi. Sahar namozi azonini hufton deb o'ylaydi. O'ziga kelgach, deydi: - «ey Muborakning nomuborak o'g'li, senga uyat emasmi? Agar Imom namozda uzunroq sura qiroat qilsa, toliqarding. Endi nafsing uchun tong otguncha azob tortasan",-deydi. Shundan so'ng Abdulloh Muborak tavba qilib, sulukka beriladi.

Qit'a:

Tavbaekim aning saodatidin,

Bir qul o'g'li bu poya kasb etgay

Kim anga shohlar qul o'lg'aylar

Munga o'zluk bila nechuk yetgay?!¹

Ikkinchi hikoyat- zuhd haqida. Zuhd-dunyo va uning lazzatlari orzularidan voz kechib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lmoq. Mashoyixlardan Junayd:"Zuhd shuki, mulkdan qo'l, tab'dan dil xoli bo'lg'ay"-deydi. Zohid parhezkor bo'lib

² Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 483-bet.

¹ Alisher Navoiy."Mahbub ul-qulub", 484-bet.

jismoniy halovat va lazzatlardan saqlanib, dunyo, molu joh, yoru ag‘yorning ko‘pu ozligiga parvo qilmaydi. Najmiddin Komilov “Tasavvuf” asarida zuhdga shunday ta’rif beradi: ”Zuhd-varaning davomi hisoblanadi, bu ham parhez, hazar qilish demakdir. Ammo bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratishga alohida ahamiyat beriladi. Zuhd so‘fiy uchun dunyo va oxirat tarki, dunyo moliga ega bo‘laman, deb intilmaslikdir. Junayd Bag‘dodiy so‘zi: “Zuhd-qo‘lni mulkdan xoli tutish, dilni esa Haqdan o‘zga har narsadan pok saqlash demak”. G‘azzoliy deydi: “Zuhd dunyodan ixtiyoriy ravishda voz kechish va buning uchun qayg‘urmaslikdir ”.¹

Demak, zuhd ham poklanishning bir yo‘li. Halol va haromdan, dunyoning mol-mulkiga havasdan, ichimlik va taomdan o‘zni tiymoq.

Ibrohim Haqqulning “Meros va mohiyat” asarida ham zuhdning talqini yetarlicha ochib berilgan. “Payg‘ambar (a.s.) demishlar: «Dunyoda zuhdni yuqori qo‘yginki, Mavlo seni sevsin va nosning (oddiy insonlarning) qo‘lidagilarga iltifot etmagilki, nos ham seni sevsin». Demak, zuhdning bosh talab va shartlaridan biri - hech kimdan hech nima tama qilmaslik, el moliga ko‘z tikishdan tiyilishdir.

Ahmad Hanbal zuhdning uch martabasi borligini aytgan: birinchisi - avom zuhdi. Bu - haromni tark etmoq. Ikkinchisi - havoss (hoslar) zuhdi. Bu - haloldan ham zaruriyatdan ortig‘ini tark aylash. Uchinchisi - Ollohdan boshqa hammasini tark qilmoq.²”

Navoiy bu masalani dalillash maqsadida yana bir hikoyat keltiradi. Bu hikoyat Mavlono Shamsuddin Muiddi Ucha va Kichik Mirzo bilan bog‘liq hikoyatni keltiradi.

“Kichik Mirzo Husayn Boyqaroning egachisi Oqobeginning o‘g‘li. Boburning yozishicha: “burunlari tog‘oyisiga mulozamat qilur erdi. So‘ngra sipohiylikni (hukumat xizmati, amaldorlik) qarch qilib mutolaaga mashg‘ul bo‘ldi. Derlarki, donishmand bo‘lub ekandur”. Navoiy “Majolis un-nafois”da yozadi: ”Xo‘p tablik, tez idrokliq, sho‘x zehnlik, qaviy hofizalik yigit erdi. Oz fursatda

¹ Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, “Movarounnahr” nashriyoti. 2009. 27-bet.

² Ibrohim Haqqul. “Meros va mohiyat”. Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008. 13-bet.

yaxshi tolibi ilm bo'ldi va ko'proq ulum va funundin o'z mutoolasi bila vuquf hosil qildi. She'r va muammoni xo'p anglar erdi, balki ko'ngli tilasa ayta ham olur erdi. Bovujudi bu fazoil darveshliqlarga moyil bo'lib, Makka ziyorati sharafiga musharraf bo'ldi". Bu hikoyat Kichik Mirzoning ana shu darveshlikka moyilligidan dalolat beradi"¹.

Shayx XV asrda Jomda yashagan, so'fiylar boshlig'i bo'lgan. U hammadan xoli joyda bir masjidda o'ttiz yildan beri hayot kechirar edi. O'zini yomon narsalardan tiyib, hech kimdan hech narsa ta'ma qilmay, tagida bir bo'yra va boshi ostida bir g'isht bilan kun kechirardi. Uhud g'azvasida bo'lgan bir jangda Muhamad(s.a.v)ning ikki tishi sinadi. Shayx Muhamad(s.a.v)ning yo'qotgan ikki tishi xotiri uchun o'zining 32 tishini sug'urib tashlagan. Kunlardan bir kuni Kichik Mirzo shayx ziyoratiga boradi. Masjidga kirganda ul zot egnida hirqa, boshida eski bo'rk bilan o'tirardi. Kichik Mirzo bu holatdan juda mazlum bo'lib, unga bir hovuch oltin beradi. Biroq shayx men hech narsaga muhtojmasman deb oltinni qaytarib beradi. Agar sizning oltiningizni olsam ham uni nima qilaman, qayerga qo'yaman. Sizning bir mulozimingizning hujrasida yashab yurubman. Menga shuning o'zi ham yetadi. Kichik Mirzo shayxning bu so'zlaridan juda ta'sirlandi. Bir necha kundan keyin Shayxzoda Mavlono xizmatiga musharraf bo'ladi. Navoiy hikoyatning ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida bayt keltirib o'tadi:

Kimki ko'nglidin aning faqr orzusi ketmagay,
Budurur ummedkim, Haq oni navmid etmagay².

Ya'ni:

Kimki qanoat bilan sabr qilsa, Olloh uni noumid etmaydi. Qanoatga odatlangan faqrning yovg'on umochi-olg'ir boyning novvotu holvasidan totliroqdir.

Uchinchi hikoyat tavakkul zikrida deb nomlangan maqomotda berilgan. Navoiy bu maqomotga shunday ta'rif beradi: "Tavakkul Haq yo'lida vosita

¹ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". 744-bet.

² Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". 486-bet.

asbobin raf' qilmoqdur va vasila hijobin daf' qilmoq. Va sabtlarg'a miyonchilikdin uzr qo'lmoqdur va sabab va uzrsiz musabbibqa banda bo'lmoqdur. Tavakkul ahli barcha asbob vastasidin ko'z yumubdurlar va "Falyatavakkal alalloh" daryosig'a cho'mo'bdurlar va ro'ziy yetkurguchi Haqni bilibdurlar"¹. Tavakkul-parvardigorga dilbastalik va komil e'timod-ishonchdir. Bu ma'rifatning kamoliga bog'liq maqom bo'lib, valiylarga nasib qiladi.

"Tavakkul - barcha yaxshi-yomon hodisalar, ishlarni Xudodan deb bilish, qalban Parvardigorga suyanish. Tavakkul ilohiy fayzga e'timodli kishining imonidir. Bu ma'rifat kamolidan keladigan oliy maqomdagi imondir. Barcha hollarda va amallarda Allohga suyanish, o'zini bir faoliyat asbobi hisoblash, barchani Xudoga topshirib, Xudodan o'zga narsalar ham Xudodan ekaniga chuqur ishonish. «Tavakkul - imon haqiqatidir» (Koshoniy)"².

Tavakkul va uning sifatlari haqida misollar, tashbehtar keltirgandan so'ng shoir hikoya bilan tanishtiradi. Hikoya Ibrohim Adham sahobalaridan Shayh Ibrohim Sitnabahga bag'ishlanadi. Bu kishi asli Hirotda yashagan, shu bois uni Hirotiy ham deyishgan. Qabri Qazvinda.

Bir kuni Shayh Ibrohim Sitnabah bir muridi bilan Ka'ba ziyoratiga chiqadi. Yo'lda Shayx muridiga o'zing bilan biror nima olib chiqqan bo'lsang tashla deb aytadi. Murid men Xudoga ishonib yo'lga chiqdim, shuning uchun o'zim bilan hech narsa olmadim deydi. Yana bir necha qadamdan keyin, Shayx yurishim qiyinlashyapti o'zing bilan biror sir olib chiqqan bo'lsang tashla deb aytadi. Murid bir-ikki dona oyoq kiyim ipidan olib chiqqan edim. Sahroda oyoq kiyimim ipi uzilsa, bog'lab olaman deb aytadi. Shayx bu oyoq kiyim ipi mustahkam, uzilmaydi. Shuning uchun ortiqchasini tashla, murid tashlashga majbur bo'ladi. Yo'lda nogoh muridning oyoq kiyimining ipi uzilib qoladi. Endi shayxga ta'na qilaman deb turganida, nogoh oyog'i ostida oyoq kiyim bog'ichi paydo bo'ladi. Murid uni oyoq kiyimiga bog'lab Shayxga yetib oladi. Qachonki yo'lda oyoq kiyim ipiga muhtojlik bo'lsa paydo bo'laverdi. Shundan keyin muridning

¹ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". 487-bet.

² Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, "Movarounnahr" nashriyoti. 2009. 28-bet

tavakkuli, ollohga ishonchi ortaverdi. Tavakkul yo‘liga kirgan kishi, o‘zga narsalarning hayolini ko‘nglidan chiqarishi kerak.

Hikoyatdan kelib chiqadigan ma’no shuki tavakkul ya’ni xudoga ichonch va sadoqat bilan biror ish boshladingmi, boshqa ortiqcha narsalardan voz kech. Xudoga ishonsang, xudo senga beradi. Hikoyatda Shayx Ibrohim Sitnabahning tavakkuli kuchli bo‘lganligi uchun muridining unga bo‘lgan e’timodi oshdi.¹

To‘rtinchi bob “Qanoat zikrida” deb nomlanadi. Navoiy asarida qanoatga shunday ta’rif beradi: “Qanoat-bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shavkat hosilini beradi, u bir daraxtdirki, unda qaram bo‘lmaslik va hurmat mevasi bordir”². Qanoat bir qo‘rg‘onki, unga kirsang nafsning g‘alvasidan qutilasan. Qanoat bir cho‘qqiki, unga chiqsang, do‘st –dushmanga muhtojlikdan xalos bo‘lasan. Qanoatda qancha rohat va farog‘at bo‘lsa, uni aksi bo‘lgan tamada shuncha razillik va uqubat bor. Xasislik va tamagirlik or-nomus uyini kuydirguvchi bir o‘tdir. Tamagirning biror nima olishga o‘chligi, xuddi yeb to‘ymasning taomga ochko‘zligiga o‘xshaydi. U biri tubanlar harakati bo‘lsa, bu biri hayvonlar odati.

Qanoat bir gavharki, elni bu ikki balodan xalos qiladi va xalqni bunday ofatdan qutqaradi. Bu fikrlarni dalillash maqsadida Navoiy Shayx Shoh Ziyoratgohiy haqidagi hikoyatni keltiradi. Shayx XV asrda Xurosonda yashagan mashoyixlardan. Shayx Shoh Ziyoratgohiy qilgan ibodatini yaxshi o‘tishi uchun qanoat qiladi. Xalqning nazr niyozini qabul qilmay ekin ekib kun ko‘radi. Hirot ahlining ulamolari bu muborak Shayxning xizmatiga bel bog‘laydi. Ziroat nonidan qo‘ynilariga solib, tabarruk uchun shaharga ayol va bolalariga keltirib yediradilar. Buning ma’nosi shuki, ziroat nonidan yeganlar oxirat najodiga umidvor bo‘ladilar. Shayxning boriga qanoat qilib yashashi uni el orasida shuhrat topishiga sababchi bo‘ldi.

¹ Izoh. Bu hikoyat mazmunini yoritishda Alisher Navoiy Jome’ masjidi Imom yordamchisi Rahmonov Muzaffar yordamiga tayanildi.

² Alisher Navoiy. ”Mahbub ul-qulub”. 488-bet.

Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Borcha el aro tavozeu izzati bor,
Ul kim tamau hirs bila ulfati bor,
Yaxshi – yomon ichra zillatu nakbati bor.¹

Beshinchi bob sabr xususida Sabr - toqat, chidam. Soʻfiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi oʻzini balo girdobiga solib, balolardan qoʻrqmaydigan odamdir. “Sabr - imonning yarmi deytilar, chunki soʻfiyning dushmani boʻlgan nafs sabr orqali jilovlanadi, toatdan halovat topish ham sabr bilan boʻladi”². Asarda Navoiy sabrni ogʻir qadam, lekin bekatga olib boruvchi tuyaga oʻxshatadi. Sabr-tabib, badhoʻr dori, bemor undan azob tortadi, ammo soʻnggida sogʻlikka erishadi.

Ishqqa muhtalo boʻlgan oshiqlar bu soʻzni eshitganda choʻchidilar va lekin sabr natijasida yor vasliga yetishadilar. Hajr azobini tortayotgan kishilar sabr soʻzini eslashdan jirkanadilar, lekin oxirida sabr tufayli diydor koʻrishadilar.

Naql qilishlaricha, bir bechora-notavonning koʻngliga bir gulyuzning ishqini tushadi. U tuhmat tufayli zindonga tashlanadi. Tuhmatni boʻyniga qoʻyish uchun unga berilmagan azob qolmaydi, ammo u maxfiy sirni tilga olmaydi. Bir kuni mirshablar borib uni zindondan tortib chiqazadilar va bosh ayogʻidan tortib bir quloq yogʻochni uning badaniga urib maydalaydilar. Kaltak zarbidan oshiqning butun vujudi jarohatlanadi. Uning azoyi badanidan qon oqadi. Shunda ham u bechora mutlaqo gapirmaydi. Nihoyat mirshablar uni azoblashdan charchadilar va oʻrtadan sudrab chiqarib, noilojlikdan qoʻyib yuboradilar. Soʻngra mirshablar yiroqlashgach, oshiq ogʻzidan maydalangan tanga parchalarini chiqaradi. Toʻplangan odamlar bu hol sababini soʻraydilar.

Uning javobidan maʼlum boʻladiki, mirshablar kaltaklayotgan paytida sevgilisi kelgan va bir burchakda uning ayanchli holiga boqib turgan ekan. Unga jabr- zulm qilinayotganida, u tangani ogʻziga solib, har zarbda ikki tishi orasiga olib, qattiq

¹ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” 484-bet.

² Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, “Movarounnahr” nashriyoti. 2009. 28-bet

tishlar va tishining zarbi bilan u pulni mayda-mayda qilib ushatar ekan. Oshiq o‘z ma’shuqasi qarshisida sabr-chidam ko‘rsatib, uning kuzatib turganini sezar ekan.

Bu manzarani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan ma’shuqasi oshiq yoniga kelib, uning yaralariga malham qo‘ydi. Bu oshiq yigit tasavvur qilib bo‘lmas davlatga muyassar bo‘ldi va xayol qilib yetmas saodatga erishdi. Bu baxt - barcha qiyinchiliklarni sabr-chidam bilan yengish namunasidir. Bunga azob-uqubatga bardosh ko‘rsatish orqali erishildi.

Kimki har shiddat aro sabru tahammul ayladi,
Baxt aning nishini no‘shi xorini gul ayladi.¹

Oltinch bob “Tavoze’ va adab zikrida” deb nomlanadi. Tavoze’-bu odob. Kimdaki u bo‘lsa xalq o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘ladi. Odob kishilar tomonidan qilinishi mumkin bo‘lgan hurmatsizlikdan saqlaydi va odamni hazil mazahdan, kamsitilishdan himoyalaydi. Odob tufayli kattalar hurmatda, kichiklar izzatda bo‘ladi. Odobli va go‘zal xulqli odamlar ko‘payaversa xalq o‘rtasida mehr – muhabbat oshadi. Agar kishi odob va tavoze’ kabi yaxshi xulqqa ega bo‘lsa, o‘zi ham xalqning izzat –hurmatiga sazovor bo‘ladi.

Bayt:

Aqlu hikmat ishidur bo‘yla maoshu oyin,
Qayda topqay muni har nafsparastu xudbin¹.

Ya’ni: Kimki mehnat qilsa nasibasiga yarasha har oy maosh oladi. Nafsparast xudbin esa axloqsizligi tufayli hech narsaga erisha olmaydi.

“Hayrat ul-abror” asarida tavoze’ga shunday ta’rif beradi. “Yangi chiqqan oy tavoze’ saqlab, qaddini xam qildi, u kun sayin kamol topa boshladi. Yoy tavoze’

¹ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”, 490-bet.

¹ Alisher Navoiy.”Mahbub ul-qulub”. 492-bet.

sifatiga ega bolgani uchun qadri oshib, «Qur'on» ustidan joy oldi. Osmon ham tavoze'ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga bo'ysunadi»².

Asarda Navoiy odob va tavoze' bilan bog'liq Muqbil va Mudbir hikoyatini keltiradi. Uning "Lison ut-tayr" dostonida ham Muqbil va Mudbir obrazi uchraydi. Unda kamtarlik va manmanlik xususida so'z yuritiladi.

Bir ov paytida Husrav Parvezning shohlik tojidan porloq gavhar yo'qoladi. Hammaning xayoli ov bilan band bo'lgani tufayli, buni hech kim sezmay qoldi. Ovdan keyin maydonga qaytadilar. Shundan so'ng, toj gavhari tushib qolganini biladilar. Podshoh tojining qimmatini mamlakat xirojiga teng edi. Shuning uchun, uni topib keltirgan kimsaga juda katta in'om va mukofot va'da qilinadi.

Xalq gavharga ega bo'lish uchun gavharni qidira boshlaydi. Shu payt biri g'ofil va biri ogoh ikki hamrohga uchradilar. G'ofil - johilligi sababli gerdaygan, ogoh esa, tavoze' va odob tufayli ulug'vor edi. Bulardan birining oti Mudbir, ikkinchisining oti Muqbil edi. Ular shu biyobonni kechib o'tib, shaharga borayotgan edilar. Ular gavharni qidirayotgan odamlar bilan uchrashdilar. Mudbir takabburlik qilib, odamlar bilan salomlashmay, gerdayib o'tib ketadi. Muqbil esa insoniylik yuzasidan odamlarga odob va tavoze' bilan engashib salom beradi va shu payt oyog'i ostida tushib yotgan gavharni ko'radi va darhol olib, o'pib, uni shohga etib beradi. Xusrav Parvez juda xursand bo'lib, Muqbilga aytilgan mukofotni beradi.

Mudbir takabburligi tufayli shahar hammomiga go'loh bo'ladi.

Bayt:

Takabbur va g'ofil shaharda xor-zor kezadi,
Tavoze'lini esa maqsad gavhari badavlat qiladi.¹

² Alisher Navoiy . Hayrat ul-abror. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2006. 313-bet.

¹ Alisher Navoiy."Mahbub ul-qulub". 487-bet.

Yettinchi hikoyat zikr haqida. Navoiy zikrga shunday ta'rif beradi. "Zikr ko'ngul bila Haq yodi ishtig'olidur va til bila dag'i hamul takallum maqolidur. Va ba'zi tilga ul amrdin ma'zulluq debdurlar va ko'ngulga mudovamat va mashg'ulluq".

Zikr aytish, gapirish demakdir. So'zlaganda ham gapning o'rnini va vaqtini bilib so'zlash kerak. Shoh huzurida gadoning so'zini, gado huzurida shohning so'zini aytish mumkin emas. Noo'rin so'zlangan nutq boshga balo keltiradi. O'z vaqtida gapirilgan so'z esa kishiga boylik va baxt olib keladi. Navoiy Mansur Halloj obrazi orqali fikrlarini asoslashga urinadi. Mansur - Husayn bin Mansur Halloj Bayzaviy Kuniyati Abulg'ays (857- 922). Attor «Tazkirat ul-avliyo»da uning maqolasidan ko'plab naqlar, karomatlar, qatlining tafsilotlarini keltiradi. Uning "Analhaq"ini tushungan tarafdorlari va rad etgan muxoliflarini nom-banom sanab o'tadi. Jumladan, Shibliy aytgan ekan: "men va Halloj bir mashrab (fe'l-atvor, tariqat, din) danmiz. Lekin meni devonalikka nisbat berdilar, omon qoldim. Husaynni esa uning aqli halok qildi". Mansur Hallojdan "ishq nima" deb so'raganlarida: "O'ldirilgan, sovrulgan kun – ishqdir", - deb javob bergan ekan. Attor Mansurning qay tarzda qatl etilishini yozadi: avval toshbo'ron qilinadi, keyin qo'llarini, so'ng oyoqlarini chopib, burun, quloqlarini kesib, ko'zlarini o'yib tashlaydilar. Har bir a'zosidan judo qilisharkan, Mansur javoblar berib turgan, jumladan, tilini qirqishdan avval: "Biroz sabr qiling, so'zim bor, deb yuzini osmonga qaratib: Ilohi, sening uchun shu ranjni tortayotganlarni (ya'ni, unga azob berayotganlarni) marhamatingdan mahrum qilma, ularni shu davlatdan benasib etma!" deb iltijo qilgan ekan. Attor ta'kidlaydiki, namozshom paytida Hallojning boshini tanidan judo qilar ekanlar, u tabassum bilan boqardi har andomidan "Anal – haq" eshitilar, oqqan har tomchi qonidan «Alloh» naqshi zohir bo'lar edi», - deb yozadi.

Jomiyning "Nafahot ul-uns", Navoiyning "Nasoyim ul – muhabbat" asarlarida Mansur Halloj haqida maqola mavjud. Oxirida (har ikki maqola aynan) Mansur Hallojning ustodi Abu Amr binni Usmon Makkiy tavhid haqida bir risola yozganligi aytiladi. Uni pinhon tutar ekan. Mansur uni yashirincha olib, oshkor qiladi. Bu asar nozikliklarini tushunmay, el uni rad etadi. Ustod Hallojni «Ilohi, birovni anga gumonlakim, ilik-ayog'in kesgay va ko'zin o'yg'ay va dorg'a

tortqay», deb qargʻagan ekan. «Nimaiki Mansur Halloj boshiga tushgan boʻlsa, ustodi duosi bilan boʻldi», deyiladi.

Hikoyatda Xoja Abdulloh Ansoriyning soʻzni oʻrni bilan soʻzlash kerakligi haqidagi fikrlari Mansur Halloj misolida koʻrsatiladi.

Sakkizinchi bob: Tavajjuh zikrida deb nomlanadi. Tavajjuh zohiran, qalban butun borligʻing bilan Haqqa yuz tutmoqlikdir. Navoiy asarlari lugʻatida ushbu soʻzning maʼnosi “bir tomonga yoʻl olish, yuzlanish, borish” deb koʻrsatiladi. Asarda tavajjuhga shunday taʼrif beriladi: “Agar tavajjuhda yuziga oʻqlar kelsa, koʻz yummoqni unutqay, agar bir koʻzini ul oʻqlar zoeʻ qilsa, yana birini ilgari tutqay”.¹ Demak, tavajjuh oʻzni Olloh yoʻlida fido qilish demakdir. Bu bobda Navoiy yosh Shahzoda bilan boʻgʻliq hikoyani kiritadi. Bir oʻt yoquvchining koʻngliga shahzodaning ishq tushib qoladi. Ishaq tufayli telbanamo holatga kelib qoladi. Tilida uning ismi, koʻnglida uning zikri bilan xayol surib yuradi. Shahzoda bu xabarni eshitgach, oʻz oshigʻini koʻrish maqsadida sayrga chiqadi. Sayr chogʻida uni koʻrib gulxan sari etadi. Oshiq maʼshuqini koʻrib oʻzini butkul yoʻqotadi va gulxanda yonib ketadi. Shahzoda qotil devonasi holiga yigʻlab achinadi. Oʻzi oʻldirib oʻzi aza tutadi.

Majoziy ishqda mundoq tavajjuh ayla xayol,

Gar oʻlsa ishq haqiqiyda koʻr ne boʻlgʻay hol².

Toʻqqizinchi bob Rizo zikrida deb nomlanadi. Rizo-tasavvufda tavakkuldan keyingi maqom boʻlib, solik oʻz nafs rizosidan qutilib, Xudo iroda qilgan, taqdir etgan narsalarga rozi boʻladi.” Rizo-bandaning oʻz rizosidan chiqib, Mahbub rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarra eʼtiroz qilmasligidir. Solikda ushbu maqomda hech narsadan gʻazab, hayajon, gina-kudurat va xafalanish boʻlmaydi...”³

Agar sen bogʻga kirganingda boshingdan gul yogʻilsa, yoki oyogʻingga tikan kirsam bu hammasi bogʻbonning roziligi va ixtiyori bilan boʻladi. Xuddi shunday

¹ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”, 495-bet.

² Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”, 495-bet.

³ Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, “Movarounnahr” nashriyoti, 2009. 28-bet

do'stning roziligi uchun ham o'z jonidan kecha bilishi kerak. Shoir rizo sharhida Ali ibni Abu Tolib bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. Hikoyatning qisqacha xulosasi quyidagicha: insonga berilgan ikkita ko'z doimo bir-birini nazorat qilib turadi. Chap ko'z o'zingning ko'zing bo'lsa, o'ng ko'z xudoning ko'zi. Ikkalasi bir-birini ko'rmasa ham borliklariga ishonishadi. Insonning barcha yaxshi-yomon ishlaridan ogoh bo'lib turishadi. O'ng ko'z doimo chap ko'zni nazorat qilib turadi. Shuning uchun o'ng ko'zni aziz bilishadi. Ko'z timsolida insonning barcha yaxshi-yomon ishlarini xudo bilib turadi. Shu sababli barcha istaklarning ham chegarasi bo'lishi kerak, ana shu chegaradan chiqmaslik kerak deb uqtiriladi.¹

O'ninchi bob ishq xususida. Navoiy asarlarining deyarli asosiy mavzusi ishq haqida. G'azal va dostonlari-yu, ruboiylarida ham ishq tasvirlanadi. "Ishq tasavvufda ilohiy ne'mat, solikning jazbali holati hisoblangan va tariqatning eng muhim maqomlaridan biridir. Unga faqat sodiq va pok insonlar yetishadi. Bu maqomda oshiqda shunday holat yuz beradiki, u o'zidan begona, noogoh, zamonu makondan ozod, mahbub firoqida kuyadi, yonadi, unga yetishishga intiladi"².

Muallif ishqni quyidagi uch qismga bo'ladi:

1. Avom(omma, ko'pchilik) ishq. Bu ishqning eng yuqori cho'qqisi shariy nikoh bilan tugaydi.

2. Xoslar, ya'ni alohida kishilar ishq. Mazkur toifaning maqsadi-"ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'olmoq va bu pok mazhar vositasi bila pokboz mahbubi haqiqiy pok jamolidin bahra olmoq"³.

Keltirilgan parchadagi "pok mazhar vositasi bila" degan so'zlarga alohida diqqat qilish kerak. Mazhar zuhr bo'lgan, ko'ringan narsa. Agar u pok bo'lsa, odam ham mahbubi haqiqiy, ya'ni Olloh go'zalligini namoyon etishi va uni ta'riflash bilan Tangri taologa ishqni tasvirlash mumkin. Ollohn sevishtni tasvirlash-majoziy ishq, to'g'ridan-to'g'ri Tangri taoloni sevishtni tasvirlash-haqiqiy ishq. Oshiqlarning bu

¹ Izoh. Bu hikoyat mazmunini yoritishda Alisher Navoiy Jome' masjidi Imom yordamchisi Rahmonov Muzaffar yordamiga tayanildi.

² Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub", 746-bet.

³ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub", 498-bet.

guruhiga aynan ana shunday xos ishqni kuylagan to‘rt shoir-Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy, Xoja Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiyni tilga oladi. “Heh ikkilanmasdan, Navoiyning o‘zini ham ana shu ikkinchi ishqni kuylaganlar guruhiga kiritish kerak. Chunki keyingi mulohazalarida muallif ijodida aynan Jomiy yo‘lini davom ettirganlar turk ulusida ham fors-tojik xaylida ham anchagina borligini qayd etib o‘tishni unutmaydiki, shu yerda zimdan o‘ziga ham ishorani sezib olish mumkin”¹. Navoiy siddiq ishq bilan bog‘liq Majnun hikoyatini keltiradi.

Majnunlik ko‘nliga ishq tushib xastalanib qoladi. Har qancha davolasalar ham foyda qilmaydi; kasali ortib, isitmasi tushmaydi. Bemor og‘irlashib jon talvasasiga tushganda, kimdir bu ahvoldan Laylini xabardor qiladi. Layli o‘z devonasining holini so‘rash uchun xat yozadi. Bir odam u xatni Majnunga yetkazganida, uning tanida jon asari qolmagan edi. Shu paytda mehribonlari Laylining xatini o‘qiydilar. Har gal xat takror o‘qilganda, bemor taniga jon qayta kirgandek bo‘lar edi. Majnun ahvoliga har qanaqa dori-darmon, duo va tumor ta’siri davri o‘tgan edi. Lekin unga Laylining xati tumor va duo o‘rnini bosadi. Bemor kasaldan tuzalib, sihat-salomat boshini ko‘targuncha bu xatni takror-takror o‘qiydi, sog‘aygach esa tumor qilib bo‘yniga taqib oladi. Ishq alangasidan Majnunlik kasali tuzaladi.

3. Siddiqlar, ya’ni o‘ta sadoqatli kishilar ishq. Bundaylar haq tajalliyoti jamoliga boshqa narsani vosita qilmaydi. Bundaylarning “kamoli visol mayi zo‘ridin ko‘ngullari behud va mast”². Bu toifani vosillar, ya’ni vaslga yetganlar ham deyishlari aytiladi. Navoiy asarda bunday toifa kishilarni haqni ko‘z bilan mushohada qilish umidlari o‘zni unutish darajasiga yetgan va bundan ham o‘tib, halok bo‘lish maqomiga ko‘tarilgan bo‘ladi deb ta’riflaydi.

Agar hodisalar bo‘roni osmon gulshanining bir qabatini uchirib ketsa-ular bexabar va agar yulduzlar gul bargini har tomonga sovursa, bularga asar qilmaydi.

¹ To‘ychiyev U. Navoiyni ishqni turlarga ajratib tasvirlashi //”O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2010.6-son. 42-bet.

² Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 500-bet

Ularning hislari haq jamolini ko‘rish tashvishi bilan ishdan chiqqan, shavq-zavqlari esa, unga bo‘lgan ishqlarining hujumi ostida yo‘qolib bitgan. Mazkur bobda Shayx Abu Said Xarroz bilan bog‘liq hikoyat keltiriladi. Uni “Lison ut-tasavvuf”(Tasavvuf tili) deb ulug‘laganlar. Asli Bag‘doddan. Ikkinchi tabaqa mashoyixlaridan. Laqabi Harroz (poyabzal yamoqchisi). Muhammad bin Mansur Tusiyning shogirdi. Zunnun Misriy suhbatida bo‘lgan. Tasavvufda 400 asari borligi Attorning “Tazkirat ul-avliyo” sida qayd etilgan.

Boyazid Bistomiy bilan bog‘liq hikoyat asarning tanbehlar qismida keladi.

"Tasavvuf allomalari" kitobida Boyazid Bistomiy haqida shunday yoziladi: "Sharqda "Sulton ul-orifin", "Burhon ul-muhaqqiqin" laqabi bilan shuhrat topgan tasavvufdagi tayfuriya oqimiga asos solgan Abu Yazid Tayfur Iso o‘g‘li, Sarushon o‘g‘li Bistomiy VIII asrning oxirgi choragida Bisomning kumush mavzeida zardushtiy donishmandi xonadonida tavallud topgan. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo‘lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o‘qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba'zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo‘lida tahsil ko‘rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in'om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar "Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan" deyishadi. Shunday bo‘lsa-da Nishopur, Ray, Hamadon, Iroq, Shom va Arabistonlarga safar qilgan. U 867-yili 103 yoshida o‘z vatanida olamdan o‘tgan"¹.

107-tanbehda ana shunday hikoyat kiritilgan. Bir kuni Shayx Boyazid Bistomiy muridi bilan safarga chiqadi. Yo‘lda azim daryoga duch keladi. Shayx “Alloh!” deb suvga qadam qo‘yadi va muridiga “Boyazid” deb qadam qo‘y deb buyuradi. Shayx va murid “Alloh” va “”Boyazid deb qadam qo‘yib daryodan o‘ta boshlashadi. Nogoh murid shayx Olloh zikri bilan qadam bosyapti, men ham o‘rtadagi vosita bilan emas,”Alloh” nomi bilan qadam bosay deb yurganida, suvga

¹ Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2004. 47-48-betlar.

² Alisher Navoi. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.2011. 538-bet

botadi. Shayx uni suvdan qutqarib quruqlikka chiqaradi va sen avval Boyazidga yet, undan keyin Tangriga yetishishni havas qil deb aytadi.

Ruboiy:

Kimniki, bu yo‘l qat’ig‘a soldi taqdir,
Pir amrini qilmasa, keraktur tafyir,
Onsiz qadam ura, angla makru tazvir,
Mal’un desa behrakki, desalar bepir².

O‘n uchinchi hikoyat Horun ar-Rashid va Shayx Bahlul nomlari bilan bog‘liq. Shayx Bahlul- Horun ar-Rashid davrining mashoyixlaridan, zamona allomasi Umar Kufiyning o‘g‘li bo‘lgan. O‘zini devonavashlikka solib, jamiyat norasoliklari va a‘yonu ashroflar riyokorligini fosh etib yurgan. Lekin Shayx Bahlulning jununi bor, deb uni jazolashmas ekanlar. Navoiy Horun ar-Rashid bilan Shayx Bahlul orasidagi bir suhbatni shukr va qanoat bobidagi o‘z o‘gitlariga misol tarzida keltiradi.

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo‘lib ular tarixiy, afsonaviy, an’anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog‘liq. "Mahbub ul-qulub"dagi hikoyatlarning badiiyligi ham yuksak. Ularda ko‘pgina badiiy vositalar, she’riy san’atlar uchraydi. "Atoulloh Husayniy badiiy san’atlarni 3 turga ajratadi. Birinchi san’at- lafziy san’atlar, ikkinchi san’atlar - ma’naviy go‘zalliklar, uchinchi san’at - lafziy va ma’naviy san’atlar"¹.

latofatu nazokatini, ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan. O‘zbek adabiyotida san’atlarning soni shunchalik ko‘pki, ularning aniq sonini aytish qiyin. Ba’zi adabiyotlarda ularning soni 150 dan ortiq deb ko‘rsatiladi.

Lafziy san’atlar she’riy nutqdagi so‘zning tovushi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq shakl hodisasi sifatida ko‘rinadi. Lafziy san’atlar xilma-xil.

¹ Atoulloh Husayniy. Badoe'u-s-sanoe'. Toshkent, 1981.

“Adabiyotshunos T.Boboyev tarse, tajnis, saj', tashtir, aks, mullama', hojib, ishtiyoq, tasdir kabilarni lafziy san'atlar turiga kiritadi”.²

Ma'naviy san'atlar nima? Ularga qaysi she'riy san'atlar kiradi? She'r san'atlarining bir guruhiga she'r ma'nosi, g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan san'atlar kiradi. Ma'naviy san'atlar ham rang-barang ko'rinishlarga ega. Mana ular: tayjih, iyhom, lutf, tajohilu-orif, talmeh, irsoli masal, ruju', takrir, savoli-javob, muammo, lug'z, tashbeh, tamsil, kinoya, tadrij, tazod, istiora, taajjub, muashshah, chiston kabilar.

She'riy san'atlarning uchinchi turi - ma'naviy-lafziy san'atlar. "Sanoe'ning bu turi, yuqorida aytilganidek, she'rning ham tovush (shakl), ham ma'no (mazmun) tomoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ma'naviy-lafziy san'atlar ham g'oyatda rang-barang ko'rinishlarga ega. Jumladan: mutobaqa, tatbij, muqobala, tavfvif, ta'dil, irsod, muzovaja, iqtibos, tazmin, tanosib...”³

Demak, she'riy san'atlar juda ko'p bo'lib, ularning bir qanchasi “Mahbub ul-qulub”dagi hikoyatlarda uchraydi. Ulardan ayrim misollar keltiramiz. Hikoyatlarda eng ko'p uchraydigan san'at - tazoddir.

"Tazod - ma'naviy san'atlarning eng ta'sirchan va ko'p ishlatiladigan turlaridan biri bo'lib, nasr va nazmda keng qo'llanilgan. Xullas, tazod nasr va nazmda bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etuvchi so'z yoki iboralarni ma'lum bir munosabat nuqta'i nazaridan ishlatishdan iboratdir".¹

Rizo zikrida mana bunday bayt bor:

Rozi o'lsa gar yomon, gar yaxshi bo'lsa jilvagar,
Sun'i kilkidin musavvardur chu har yanglig' suvar.²

Bu misralardagi yaxshi-yomon so'zlari tazoddir.

² Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 237-bet.

³ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 267-bet.

¹ Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, 2006. 65-bet.

² Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 496-bet.

Sabr haqidagi hikoyatda ham tazod bor:

Ajab ranjeki andin sa'b yo'q ranj,
Vale chekkan kishining bahrasi ganj³.

Bu misralardagi ranj va ganj tazod. Ranj-azob, ganj-xazina degani.

Hikoyatlarda tarse' san'ati ham ko'p uchraydi. "Tarse' ning lug'aviy ma'nosi "gavharni ipga tizish"dir. Istiloh sifatida esa ikki jumla yoki misradagi so'zlarning bir-biri bilan vaznda, ham qofiyada barobar bo'lib kelishini bildiradi".⁵

Zuhd zikrida Alisher Navoiy tarse'ning mana bunday namunasini kiritgan:

Bu talabda kimki bo'lsa anga ro'zi etma hirmon,
Bu taabda kimki bo'lsa anga qil vasl ila darmon.⁵

Talmih ("nazar solmoq") she'r yoki narsa mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir. Shoirilar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhro" kabi qissalar va dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. Bu san'atda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi.

Tavakkul qismida shunday talmih uchraydi.

Tavakkul chun durust ermas muhaldur,
Anga na'layining ortug' shiroki.
Durust o'lg'ach yig'ilsa ganji Qorun,
Yo'q ul dam rohravning hech boki.¹

Bu yerda tarixiy shaxs Qorunga ishora qilinyapti.

³ O'sha asar, 489-bet.

⁵ Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, 2006. 80-bet.

⁵ O'sha asar, 485-bet.

¹ O'sha asar, 487-bet.

Umuman “Mahbub ul-qulub”dagi hikoyatda ko‘plab she’riy san’atlar kiritilganki, ular hikoyatlarning badiiyligini oshirgan.

XULOSA

Alisher Navoiyning eng so‘nggi yirik nasriy asari “Mahbub ul-qulub”dir. “Mahbub ul-qulub”da shoirning umri davomida ko‘rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, inson va yashash bilan bog‘liq ko‘pdan-ko‘p mulohazalari bayon qilingan. Ushbu bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi “Mahbub ul-qulub”ning tuzilishi va undagi masalalar”. Unda “Mahbub ul-qulub”ning tuzilishi, birinchi, ikkinchi, uchinchi faslidagi masalalar o‘rganiladi. Birinchi qismdagi masalalar batafsilroq yoritiladi.

Asarda hikoyatlar asosan ikkinchi qismda berilgan. Hammasi bo'lib o'n uchta hikoyat keltirilgan. Hikoyatlar ma'lum bir tasavvufiy allomalar va ular bilan bog'liq hayotiy voqealar haqida.

Ular quyidagilar:

Birinchi hikoyat-Shayx Abdulloh Muborak haqida.

Ikkinchi hikoyat-Mavlono Shamsuddin Muiddi Ucha haqida.

Uchinchi hikoyat-Shayx Ibrohim Sitnabah haqida.

To'rtinchi hikoyat-Shayx Shoh Ziyoratgohiy haqida.

Beshinchi hikoyat-Sabr xususida.

Oltinchi hikoyat-Muqbil va Mudbir haqida.

Yettinchi hikoyat-Xoja Abdulloh Ansoriy haqida.

Sakkizinchi hikoyat-Tavajjuh xususida.

To'qqizinchi hikoyat-Ali ibni Abu Tolib haqida.

O'ninchi hikoyat-Majnun va Layli ishq haqida.

O'n birinchi hikoyat-Shayx Abu Said Xarroz haqida.

O'n ikkinchi hikoyat-Sayx Boyazid Bistomiy haqida.

O'n uchinchi hikoyat-Xorun ar-Rashid haqida.

O'n fasldan tarkib topgan asarning ikkinchi qismida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze' va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq singari tasavvufiy istilohlar sharhlanadi. Shuningdek, har bir masala nazariy jihatdan yoritilgandan so'ng fikrlarni dalillash maqsadida bir hikoya keltiriladi. "Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qismi tuzilishiga ko'ra "Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlarga o'xshab ketadi. Bu qismda 1 ta masnaviy, 3 ta qit'a, 4 ta ruboiy, 14 ta bayt keltirilgan.

Birinchi qismda 7 ta masnaviy, 16 ta bayt, 3 ta nazm, 6 ta ruboiy va 7 ta qit'a berilgan.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismida to‘rt yuzga yaqin maqol va hikmatli so‘zlar tanbehlar shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, 127 ta tanbehdan iborat. Bobda Navoiy saj’ va boshqa badiiy san’atlardan mohirona foydalangan. Bu qismda 57 ta bayt, 19 ta qit’a, 12 ta masnaviy, 8 ta ruboiy, 2 ta nazm keltirilgan. Pandnomada jami 22 masnaviy, 19 ruboiy, 88 bayt, 31 qit’a, 5 nazm bor.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi " Asardagi hikoyalar va ularning mavzulari, obrazlari, badiiyati." deb nomlangan. Unda hikoyatlardagi obrazlar, she'riy san'atlar, badiiy vositalarga e'tibor qaratilgan. "Mahbub ul-qulub"dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir. Asardagi badiiy jihatlar, ularda she'riy san'atlar, badiiy vositalarning qo‘llanishini o‘rganish ham bitiruv ishining tarkibiy qismiga kiradi. Shu sabab, ushbu bobda asarning badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritishga harakat qilindi.

Pandnomadagi o‘n uchta hikoyatda o‘nlab so‘fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy- tasvvufiy faoliyat bilan bog‘liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi.

" Mahbub ul-qulub "dagi hikoyatlarning badiiyligi ham yuksak.Navoiy har bir hikoyatdan keyin she'riy izohlar keltirgan. Ana shu she'riy parchalardagi badiiy san'atlar asarning badiiyligini yanada oshirgan.

Atoulloh Husayniy badiiy san'atlarni 3 turga ajratadi. Birinchi san'at - lafziy san'atlar, ikkinchi san'at - ma'naviy go‘zalliklar, uchinchi san'at - lafziyu ma'naviy san'atlar⁶.

She'r san'atlari o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘ziga xosligini, milliyligini, latofatu nazokatini, ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalardan. O‘zbek adabiyotida san'atlarning soni shunchalik ko‘pki, ularning aniq sonini aytish qiyin. Ba'zi adabiyotlarda ularning soni 150 dan ortiq deb ko‘rsatiladi.

Lafziy san'atlar she'riy nutqdagi so‘zning tovushi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq shakl hodisasi sifatida ko‘rinadi. Lafziy san'atlar xilma-xil.

⁶ Atoulloh Husayniy. Badoe'u -s-sanoe'. Toshkent, 1981.

Adabiyotshunos T.Boboyev tarse, tajnis, saj', tashtir, aks, mullama', hojib, ishtiyoq, tasdir kabilarni lafziy san'atlar turiga kiritadi.²

Ma'naviy san'atlar nima? Ularga qaysi she'riy san'atlar kiradi? She'r san'atlarining bir guruhiga she'r ma'nosi, g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan san'atlar kiradi. Ma'naviy san'atlar ham rang-barang ko'rinishlarga ega. Mana ular: tavjih, iyhom, lutf, tajohilu-orif, talmeh, irsoli masal, ruju', takrir, savoli-javob, muammo, lug'z, tashbeh, tamsil, kinoya, tadrij, tazod, istiora, taajjub, muashshah, chiston kabilalar.

She'riy san'atlarning uchinchi turi - ma'naviy-lafziy san'atlar. "Sanoe'ning bu turi, yuqorida aytilganidek, she'rning ham tovush (shakl), ham ma'no (mazmun) tomoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ma'naviy-lafziy san'atlar ham g'oyatda rang-barang ko'rinishlarga ega. Jumladan: mutobaqa, tatbij, muqobala, tavfvif, ta'dil, irsod, muzovaja, iqtibos, tazmin, tanosib..."³.

Demak, she'riy san'atlar juda ko'p bo'lib, ularning bir qanchasi hikoyatlarda uchraydi. Misol uchun:

Ikkinchi qismning Rizo zikrida tazodning quyidagicha namunasi keltirilgan:

Rozi o'lsa gar yomon, gar yaxshi bo'lsa jilvagar,
Sun'i kilkidin musavvardur chu har yanglig' suvar.¹

Bu misralardagi yaxshi-yomon so'zlari tazoddir.

Sabr haqidagi hikoyatda ham tazod bor:

Ajab ranjeki andin sa'b yo'q ranj,
Vale chekkan kishining bahrasi ganj².

Bu misralardagi ranj va ganj tazod. Ranj-azob, ganj-xazina degani.

Hikoyatlarda tarse' san'ati ham ko'p uchraydi. "Tarse' ning lug'aviy ma'nosi "gavharni ipga tizish"dir. Istiloh sifatida esa ikki jumla yoki misradagi so'zlarning bir-biri bilan vaznda, ham qofiyada barobar bo'lib kelishini bildiradi".³

² Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 237-bet.

³ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 267-bet.

¹ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub", 496-bet.

² Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub", 489-bet.

Zuhd zikrida Alisher Navoiy tarse'ning mana bunday namunasini kiritgan:

Bu talabda kimki bo'lsa anga ro'zi etma hirmon,
Bu taabda kimki bo'lsa anga qil vasl ila darmon.⁴

Talmih (“nazar solmoq”) she'r yoki narsa mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir. Shoirilar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Tohir va Zuhro” kabi qissalar va dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. Bu san'atda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi.

Tavakkul qismida shunday talmih uchraydi.

Tavakkul chun durust ermas muhaldur,
Anga na'layining ortug' shiroki.
Durust o'lg'ach yig'lsa ganji Qorun,
Yo'q ul dam rohravning hech boki¹.

Bu yerda tarixiy shaxs Qorunga ishora qilinyapti.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari va undagi hikoyatlar g'oyaviy -badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega asardir. Asarga kiritilgan she'riy san'atlar esa hikoyatlarning badiiyligini yanada oshirgan.

³ Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, 2006. 80-bet.

⁴ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”, 489-bet.

¹ Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”, 487-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: "O‘zbekiston", 2011. 440 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. 176 bet.
3. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” Mukammal asarlar to‘plami. 10 jildlik 9-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011.764 bet.

4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 1-tom. Toshkent: "Fan", 1983. 656 bet.
5. Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 470 bet.
6. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 400 bet
7. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 344 bet.
8. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2010. 527 bet.
9. Donishmanlar tuhfası. Toshkent, 2009. 405 bet.
10. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2004. 208 bet.
11. Haqqulov I. Kamol et kasbkim. Toshkent, 1991. 238 bet.
12. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. Toshkent, "Fan", 2007. 224 bet.
13. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, 1989. 223 bet.
14. Haqqulov I. Meros va mohiyat. Toshkent: "Ma'naviyat" 2008. 204 bet.
15. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "Fan", 1996. 160 bet.
16. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent, 1997. 240 bet.
17. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, 2006. 127 bet.
18. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. Toshkent: "Movarounnahr", 1996. 272 bet.
19. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. Toshkent: "Movarounnahr", 1999. 208 bet.
20. Komilov N. Faqr nuri porlagan qalb. Toshkent: "Ma'naviyat", 2001. 93 bet.
21. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent, 1972. 784 bet.
22. Navoiyga armug'on. 5-kitob. Toshkent. 2006. 167 bet.
23. Ochilov E. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent, 2010. 224 bet.
24. Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent, 1991. 160 bet
25. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruxafzo ash'orlar. Toshkent, 2011. 272 bet.
26. Sultonmurod Olim. Navoiy-yoshlarga. Toshkent, 2008. 103 bet.

27. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. Toshkent: "Akademnashr", 2011.325 bet
28. Vohidov R., H.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.Toshkent:"O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2006.527bet.
29. O'z ME. 1-tom.Toshkent, 2000.577-bet.
30. G'afurov G'. Sharq javohirlari. Toshkent : "Ma'naviyat", 2000. 182 bet.
31. Abadiyat gulshani. Tuzuvchi: Rahmatov O'. Toshkent: "Sharq", 2013. 127 bet.
32. Sultonmurod Olim."Mahbub ul- qulub"da shoirlar va oshiqlar tasnifi"//O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2010. 6-son. 38-bet.
33. To'ychiyev U. "Navoiyni ishqni turlarga ajratib tasvirlashi"// O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2010. 6-son. 22-bet.
34. Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi.

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
talabasi Mahmudova Gulmiraning
"Navoiyning "Mahbub ul - qulub"
asaridagi hikoyatlarning g'oyaviy
mohiyati" mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

TAQRIZ

Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari nisbatan kam o‘rganilgan. Ayniqsa, asarning 2-qismi, undagi hikoyatlar diniy –tasavvufiy ruhda bo‘lgani uchun e’tibordan bir oz chetda qolgan edi. Talaba G. Mahmudova mazkur bitiruv ishida ana shu tomonni o‘rganishga harakat qilgan.

Bitiruv ishining “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, metodologik asosi, maqsad va vazifalari , nazariy va amaliy ahamiyati kabilar yoritilgan. “Mavzuning o‘rganilganlik darajasi” qismini yanada kengroq va aniqroq tavsiflash kerak edi.

Bitiruv ishining birinchi bobi “Mahbub ul-qulub” ning tuzilishi va undagi masalalar” deb nomlangan. Bu bobda adabiyotshunoslikda Navoiy asarlari haqida bildirilgan ma’lumotlar umumlashtirilgan. Shoirning she’riy, nasriy, ilmiy asarlari ko‘rsatib o‘tilgan.

“Mahbub ul-qulub”, uning tuzilishi, asardagi uch qismdagi masalalar imkon qadar yoritilgan.

Asarning birinchi qismida turli toifa kishilari haqida gapirilgani, unda uchraydigan she’rlar, ularning janrlari to‘g‘risida mulohaza yuritgan. Har bir qismning (1,2,3-qismlar) tuzilishi va mohiyati qisqacha sharhlangan. Bitiruv ishining ikkinchi bobida talabaning asosiy mushohadalari, mustaqil fikrlari, nazariy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Talaba “Mahbub ul-qulub” dagi barcha hikoyatlarni aniqlab chiqqan. Uning fikricha, asarda o‘n uchta hikoyat mavjud. Bu hikoyatlarning mavzulari ham rang-barang. Asosiy qismini diniy-tasavvufiy mazmundagi hikoyatlar tashkil qiladi. Talaba bu hikoyatlarni kuchi yetgancha tahlil qilgan. Ayrimlarining tahlilida sayozlik seziladi.

Hikoyatlarning xulosasida keltirilgan she’riy parchalarning badiiyati haqida ham to‘xtalib o‘tgan. She’riy san’atlar yuzasidan tahlil qilgan.

Bitiruv ishida ayrim uslubiy, imloviy xatolar mavjud. Adabiyotlarni berishda ayrim kamchiliklar bor. Nazariy ma'lumotlarni ko'proq kiritsa yaxshi bo'lardi.

G. Mahmudova bitiruv ishining mavzusini asosan yoritgan. Ishning hajmi, tayyorlanish darajasi talab darajasida. Bitiruv ishi Davlat attestatsiyasi talablariga javob beradi deb baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots. T. Xo'jayev